



UO'T: 633.511:631

## EKISH TIZIMLARI HAMDA CHILPISH MUDDATLARINING PAXTA TOLASINI TEXNOLOGIK SIFAT KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI

Yusupov Hasan Rustamovich 

q.x.f.f.d.

e-mail: [yusupovh637@gmail.com](mailto:yusupovh637@gmail.com)

Shakirova Dildora Ikramovna 

magistrant

e-mail: [nodirabegimsanjarbekovna@gmail.com](mailto:nodirabegimsanjarbekovna@gmail.com)

Urganch Davlat Universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitida ekilayotgan yangi istiqbolli "Sulton", "C-8294" g'oz navlarning hosildorligi, 1000-ta chigit vazni va tolaning sifat ko'rsatkichlariga ekish tizimi hamda chilpish muddatlarining ta'siri o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm viloyati, g'oz, nav, variant, ko'chat qalinligi, ekish tizimi, chilpish, hosildorlik, hosil shoxi, 1000 chigit vazni, tola chiqimi, tola uzunligi, tola tipi.

**Аннотация.** В данной статье исследуется влияние системы посадки и сроков сбора урожая на урожайность, массу 1000 семян и показатели качества волокна новых перспективных сортов хлопка «Султан» и «С-8294», выращиваемых в почвенно-климатических условиях Хорезмской области.

**Ключевые слова:** Хорезмская область, хлопок, сорт, вариант, толщина всходов, система посадки, обрезка, урожайность, ветвь культуры, масса 1000 семян, урожайность волокна, длина волокна, тип волокна.

**Abstract.** his article studies the effect of planting system and picking time on the yield, 1000-seed weight, and fiber quality indicators of new promising cotton varieties "Sultan" and "C-8294" grown in the soil and climatic conditions of the Khorezm region.

**Key words:** Khorezm region, cotton, variety, variant, seedling thickness, planting system, ginning, yield, crop branch, 1000-seed weight, fiber yield, fiber length, fiber type.

### KIRISH

Paxtachilik rivojlangan mamlakatlarda yaratilgan nav va duragaylarning biologik va marfalogik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning ko'chat qalinligi





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

hamda shunga mos ravishda chilpishni maqbul muddatida va sifatli o'tkazilganda o'simlikning rivojlanishdagi fiziologik va kimyoviy jarayonlar, xususan, suv va mineral oziq moddalarning qayta taqsimlanishi g'ozaning generativ organlari shona va gul, ko'saklarning rivojlanishi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, natijada g'ozada hosil elementlarining pishib yetilishi 8-10 kungacha tezlashadi. Buning natijasida paxta hosilining birinchi terim salmog'i ortib, hosilning 80-90 foizini yuqori sanoat navlariga topshirish imkoniyati yaratiladi. Shundan kelib chiqqan xolda bu borada ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

G'ozada navlarini biologiyasi hamda unga qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarni (sug'orish tizimi, o'g'itlash me'yorlari, tuproqqa ishlov berish turlari, Ekish tizimi va ko'chat qalinliklari va boshqalar) paxta tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini ko'pgina olimlar aniqlaganlar. (M.S.Kanash [1; 314-b.], I.I.Madramimov [2; 341-b.], M.A.Belousov [3; 42-51-b.], S.X.Yo'ldoshev [4; 171-b.], S.R.Raxmonqulov, D.M.Jalilov [5; 231-233-b.],

F.S.Zaysev [6; 195-b.] ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, tolani sifat ko'rsatkichlaridan-uzunligiga tuproq namligi o'z ta'sirini o'tkazishini aniqlagan. Shunga mos ravishda,

G.Honson [7; 99-111-b.] larning tajribalarida esa suv yetarli bo'lgan yillarda paxta tolasining sifat ko'rsatkichlari yaxshilanganligi aniqlagan.

### MATERIALLAR VA USLUBLAR

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan xolda, biz tajribalarimizni 2021-yilda Xorazm viloyati PSU va YeAITI Xorazm ITS sharoitida g'ozaning "Xorazm-127" navi ishlab chiqarish sharoiti bo'yicha 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shoxi shakllanganida chilpish tadbiri o'tkaziladi. G'ozaning yangi "Sulton" va "S-8294" navlari ikki xil, 60x12-1 va 60x15-1 tizimda ekilib, 10-11; 12-14; 15-16 hosil shoxlari shakllanganida chilpish tadbirlari olib borildi. Olingan natijalar g'ozaning "Xorazm-127" naviga taqqoslanadi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Xorazm viloyati o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida G'ozada navlarni turli Ekish tizimida ekilib, turli hosil shoxlarida chilpish o'tkazilganda tola sifat ko'rsatkichlariga qisman bo'lsada o'z ta'sirini o'tkazganligi aniqlandi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra Xorazm-127 navini 60x15-1 Ekish tizimida ekilib, 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda 1000 dona chigitni absolyut vazni 121 grammni tashkil etgan bo'lsa, Sulton navini 60x12-1 Ekish tizimida ekilib, 10-11 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda 130 grammni tashkil etib, nazorat variantga nisbatan 9 grammga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Ushbu Sulton navini shu 60x12-1 Ekish tizimida ekilib, chilpish muddatlari 12-14 va 15-16 hosil shoxida o'tkazilganda 1000 dona chigitni absolyut vazni yanada yaxshilanib 132 grammni tashkil etdi bu nazorat varintiga nisbatan 11 grammga yuqori bo'lganligi kuzatildi.





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

G'ozaning S-8294 navini ham o'rganilganda 1000 dona chigitni absolyut vazni eng yaxshi ko'rsatkich 60x12-1 Ekish tizimida ekilib, 15-16 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan 10-varinatda kuzatilib, 117 grammni tashkil qildi.

Tajribadagi nazorat varianti Xorazm-127 navini 60x15-1 Ekish tizimida ekilib, 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda tola asosiy texnologik sifat ko'rsatkichlaridan biri tola chiqimi 36,1%, tola uzunligi 33,6 mm ni, Tolaning nisbiy uzilish uzunligi 28,9 g.k/tekisni, Mikroner ko'rsatkichi 4,4 ni tashkil etgan xolda tola beshinchi tipini tashkil etdi.

Tajribada o'rganilgan Sulton navini 60x12-1 Ekish tizimida ekilib, 10-11 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda Tola chiqimi 36,6%, tola uzunligi 33,8 mm ni, Tolaning nisbiy uzilish uzunligi 27,2 g.k/tekisni, Mikroner ko'rsatkichi 4,6 ni tashkil etgan xolda tola V- tipini tashkil etdi. Ushbu ekish tizimida eng yuqori ko'rsatkich 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda kuzatilib, Tola chiqimi 36,7%, tola uzunligi 34,0 mm ni, tolaning nisbiy uzilish uzunligi 28,6 g.k/tekisni, mikroner ko'rsatkichi 4,4 ni tashkil etgan xolda tola V- tipini tashkil qilganligi aniqlandi.

Sulton navini 60x15-1 Ekish tizimida ekilganda ham eng yaxshi natija 12-14 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan 6-variantda kuzatilib, tola chiqimi 36,7%, tola uzunligi 34,1 mm ni, tolaning nisbiy uzilish uzunligi 28,9 g.k/tekisni, mikroner ko'rsatkichi 4,5 ni tashkil etgan xolda tola V- tipini tashkil qilganligi kuzatildi.


Tajribadagi g'ozani S-8294 navini tola sifat ko'rsatkichlari taxlil etilganda 60x12-1 Ekish tizimida ekilib, 10-11 hosil shoxida chilpish o'tkazilganda 1000 dona chigitni absolyut vazni 115 grammni, tola chiqimi 37,0%, tola uzunligi 33,8 mm ni, tolaning nisbiy uzilish uzunligi 27,0 g.k/tekisni, mikroner ko'rsatkichi 4,7 ni tashkil etgan xolda tola V- tipini tashkil qilganligi kuzatildi.

Ushbu ekish tizimida eng yuqori ko'rsatkich 15-16 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan 10-variantda kuzatilib, tola chiqimi 37,3%, tola uzunligi 34,0 mm ni, tolaning nisbiy uzilish uzunligi 28,4 g.k/tekisni, Mikroner ko'rsatkichi 4,4 ni tashkil etgan xolda tola V- tipini tashkil qilganligi aniqlandi.

Ushbu S-8294 navni 60x15-1 Ekish tizimida parvarishlanganda esa 12-14 hosil shoxida parvarishlangan 12-varianda kuzatilib, 1000 dona chigitni absolyut vazni 117 grammni, tola chiqimi 37,6%, tola uzunligi 33,8 mm ni, tolaning nisbiy uzilish uzunligi 28,2 g.k/tekisni, mikroner ko'rsatkichi 4,4 ni tashkil etgan xolda tola V-tipini tashkil qilganligi kuzatildi.(1-jadval, 1-rasm)



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI



**1-rasm. 1000 ta chigit vazni (gr) va tola chiqishi (%)**

*1-jadval*

### Ekish tizimlari hamda chilpish muddatlarining paxta tolasini texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri (2021 y)

№	Navlar	Ekish tizimi	Chilpish muddatlari	Tola uzunligi, mm	Tolaning nisbiy uzilish uzunligi g.k/tekis	Mikroner ko'rsatkichi	Tola tipi
1	Xorazm - 127	60x15-1	12-14	33,6	28,9	4,4	V
2	Sulton	60x12-1	10-11	33,8	27,2	4,6	V
3			12-14	34,0	28,6	4,4	V
4			15-16	33,4	26,8	4,5	V
5		60x15-1	10-11	33,8	27,7	4,7	V
6			12-14	34,1	28,6	4,5	V
7			15-16	33,6	26,8	4,5	V
8		S-8294	60x12-1	10-11	33,8	27,0	4,7
9	12-14			33,6	27,3	4,3	V
10	15-16			34,0	28,4	4,4	V
11	60x15-1		10-11	33,8	27,9	4,4	V
12			12-14	33,8	28,2	4,4	V
13			15-16	33,6	27,6	4,6	V



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

### XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki g'oz navlarini turli Ekish tizimida parvarishlanganda ham turli hosil shoxlarida chilpish o'tkazilganda ham tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlariga g'ozani biologik navlaridan qat'iy nazar, o'z ta'sirini o'tkazganligi ilmiy jihatdan o'z isbotini topdi.

### ADABIYOTLAR

1. Канаш М.С. Развитие волокна хлопчатника. Монография. Хлопчатник. Ташкент, 1959. 314 с.
2. Мадраимов И.И. Соотношение питательных веществ в удобрениях и урожай хлопчатника на сероземах Узбекистана. В кн Действия удобрений на урожай и его качество. Изд-во Колос, М.: 1965. с. 341.
3. Белоусов М.А. Физиологические и агрохимические исследования по корневому питанию хлопчатника // В кн. Вопросы физиологии и удобрения хлопчатника. Изд-во Узбекистан, Т: 1972. 42-51 с.
4. Йўлдошев С.Х. и др. Факторы повышения урожайности хлопчатника. Изд-во. Фан. Ташкент. 1982. 171 с.
5. Рахмонкулов С.Р, Жалилов Д.М. Качества семян и ряд хозяйственных показателей раёнированных сортов хлопчатника. // Илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент. 2003. 231-233 б.
6. Зайсев Г.С. Хлопчатник. Ташкент. Изд-во НИХИ, 1963, 195 с.
7. Hanson G., et al. Influence of irrigation Practices on cotton properties Agricultural Experiment Station Bulletin 483. New Mexico State University, 1964. V.99.